https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim Fan va Innovatsiyalar Vazirligi

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi

Kamoliddin Behzod Nomidagi Milliy Rassomlik va Dizayn Instituti

San'at Tarixi va Nazariyasi Kafedrasi

Ziyoda Xolberdiyeva Abdurahmanovna 2-bosqich magistranti.

Tel: 91 794 73 00

Honjonzi51@gmail.com

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA USTOZ VA SHOGIRTI ANANALARINI O'RNI VA AXAMIYATI. XATTOTLIK SAN'ATI RIVOJIDA USTOZ VA SHOGIRD MUNOSABATLARI

Annotasiya. Xattotlar arab bitik uslublarini shakllantirib zamonaviy xat turlarini mualliflaridir. Qo'lyozma bilimdonlari izlanishlari davomida yuzdan ortiq xat turlari mavjudligi sanab o'tilgan. Yetakchi xat ko'rinishlari kichik-kichik tafsilotlar, yozuv turlari misollar bilan yoritiladi.

Zamonaviy xattotlik rivoj topayotgan bir davrda, yurtimizda ustoz va shogirdlik an'analariga asoslangan, o'quv markazlari bor. Shuningdek bir qancha adabiyotlar, mustaqil shug'ullanish uchun qo'llanmalar mavjud. Ularda harflarning alohida va qo'shib yozilishi uslublari sharhlab berilgan. Bu esa arab yozuvini savodli va tartibli yozishga o'rgatiladi.

Kalit so'zlar: xattotlik, qo'lyozma, uslub, qog'oz, rasm,

Аннотация. Каллиграфы являются авторами, которые сформировали арабские письма и создали современные типы шрифтов. В ходе исследований специалисты по рукописям отметили существование более ста различных

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

видов письма. Основные формы письма освещаются с примерами мелких деталей и типов написания.

В эпоху, когда современная каллиграфия развивается, в нашей стране существуют учебные центры, основанные на традициях «учитель-ученик». Кроме того, имеется ряд литературных источников и пособий для самостоятельной работы, в которых подробно объясняются стили отдельного и связанного написания букв. Это способствует грамотному и аккуратному письму арабского алфавита.

Ключевые слова: рукопись, каллиграфия, стиль , бумага, роспись.

Annotation. Calligraphers are the authors who shaped Arabic script styles and created modern types of handwriting. Research by manuscript specialists has noted the existence of more than one hundred different types of scripts. The main forms of writing are illustrated with examples of fine details and script types.

In the era of developing modern calligraphy, there are educational centers in our country based on the traditions of master-apprentice relationships. Additionally, there are a number of literary sources and manuals for independent practice, which explain in detail the styles of writing letters individually and in combination. This contributes to learning how to write Arabic script accurately and neatly.

Keywords: manuscript, calligraphy, style, paper, painting.

Bugungi kunda pedagogika tezlik bilan rivoj topayotgan bir davrda, lekin talaygina muammolarga duch kelamiz. Pedagogika- insonni kamolotga yetishishida xizmat qiluvchi ilmiy yo'nalishdir. Biroq XXI asr davrida globallashuv, zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi va hayotiy o'zgarishlar sabab pedagogik muammolar brogan sari qiyinlashib bormoqda. Mazkur muammolarni vaqt o'tmasadan aniqlash va bartaraf etish ta’lim sifati shu bilan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

birgalikda yosh avlodning umuminsoniy kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarning ta'siri. Zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish kerak, biroq u ham muommolardan chetda qolmaydi. Izlanuvchilar, o'quvchilar, talabalar orasida gadjetlarga tobelik, internetga qaramlik, diqqatning susayishi, mustaqil fikrlashdan ko'ra tayyor javoblarni qidirish kabi vaziyatlar uchramoqda. Bu esa o'qitish holatining foydaliligini ozaytiradi.

Tarbiyaviy muammolar. Pedagogikaning juda ahamiyatli vazifalaridan biri-kelajak avlodni barkamol, vatanga sadoqatli, mehnatsevar qilib kamol toptirishdir.Taassufki, hozirgi kunda ba'zi bir talabalarda insoniy qadriyatlar sistemasi zaiflashgan. Oilaviy va odob –ahloqning o'zaro chambarchas bog'liqligi buzilmoqda. O'rgimchak to'ridan , ijtimoiy tarmoqlar singib kirayotgan yot g'oyalar yoshlar ongiga manfiy ta'sir etdi. Bu esa ustoz va oilaning mas'uliyatini kuchaytiradi.

Ustoz va shogird mammolari. Yana dolzarb muammolardan biri Pedagogikada ustoz va shogird an'analari yo'qolib bormoqda. Asosiy sabablaridan biri bu zamonaviy texnologiyaning jadal rivoj topishidir. Buni xattotlik misolida ko'rib chiqamiz.

Markaziy Osiyoda arab yozuvlari kirib kelgunigacha bo'lgan davrda, turfa xil xat uslublari bo'lgan. Uzoq tarixga ega bitiklardan biri ko'fiydir. Masalan, ona yurtimizda saqlanayotgan Usmon Quroni ham mazkur ko'fiy yozuvda yozilgan. Mushaf nusxalashda nasx, buyruq va farmonlar bitishda tavqe, maktublarni ko'chma shaklga o'tkazishda riqo foydalanilgan. Shu bilan bir qatorda tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro kabi xat usullari bo'lgan. Nasta'liq yozuvi XV-asrdan keng urfda qollanilgan. Bitik ahli Markaziy Osiyoda Temuriylar , Shayboniylar va Ashtarhoniylar sulolasi davrida juda rivoj topgan. Bobokalonimiz Amir

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Temur davrida Mavlono Shamsiddin Munshiy, sangtarosh va xattot Oltun juda mashhur bo'lgan. Alisher Navoiyning ham xususiy kutubxonasida xattotlar bo'lgan. Jumladan, Sultonali Mashhadiy “ Xattotlar sultoni” hisoblanib nasta’liq xatini san’at darajasiga ko'targan.

“Xatti Boburiy” asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburdir. Shu bilan bir qatorda xattotlik san’ati qabrtoshilarda, buyumlarda, me’moriy obidalarda qo'llanilgan. Jahonda bosmahonalar ixtiro qilgunga qadar kitob yozishda xattotlarning yordamidan unumli foydalanilgan. Turli davrlarda hukmdorlar tayyor , bilim manbai- kitobni muzahhiblarga bezashni buyurganlar. Keyinchalik bu odat tusiga kirgan.

Azaldan xalqimizda “ustoz otangdan -ulug'” degan maqol bor. Yurtimizda hamma sohada bo'lgani kabi xattotlik sohasida ham ustoz va shogird an’analari yo'lga qo'yilgan. Bitik ahllaridan biri bo'lmish Mamatov Islom Muhammad ustahonalarida ham bu jarayon izga tushgan. Mohir xattot 1965-yil Dushanbe shahrida tavallud topgan. Toshkentdagi 10-maktabni tamomlagan. 14-yoshdan boshlab , ya’ni 8-sinfdan boshlab xattotlik bilan shug'ullana boshlagan. Mashhur usta Buxorodagi Mir Arab madrasasini tugatgach, 1998-yili Toshkent Islom institutida bakalavrni tamomladi.

Dunyo bo'ylab tanlovlarda doimiy qatnashib kelgan. Jumladan, Pokiston, Turkiya, Istanbul . Ustozlari: Habibulloh Solih. Unvonlari: kumush medal, oltin medal. Mohir usta juda ko'p uslublarda ijod qilgan. Hozirda esa nasx, nasx buxoriy, kufiy xijoziy, kufiy bannoi, ma’qali, rayxoniy, muharraq, xatlaridan unumli foydalanadi. Mamatov Islom Muhammad yurtimizda va qo'shni yurtlarda joylashgan ko'plab masjid, madrasa va me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash ishlarida qatnashgan. Toshkent shahrida joylashgan Islom sivilizasiysi markazining me’moriy qurilishidagi barcha xattotlik ishlarini bajargan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Mashhur usta shu bilan bir qatorda son sanoqsiz shogirdlarning ustozidir. Ularga sidqidildan xattotlik sirlarini yaqindan o'rgatib kelmoqda. Ular orasida Murtazoyev Faxriyor juda tirishqoq talabadir.

Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumani Birlashgan qishlog'ida tug'ilgan. Murtazoyev Faxriyor boshlang'ich maktabni o'z qishlog'ida 42-maktabda tahsil olgan. Keyin esa Qo'shtepa qishlog'idagi "5-Davlat ixtisoslashtirilgan maktab internatida o'qidi. Shundan so'ng "Qo'rg'ontepa tumani qurilish kasb-xunar kolleji" ni "Kompyuter injenering " yo'nalishini tamomlagan.

2019-yili O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasining " Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fakultetiga talabalikka qabul qilindi.


2023-yili Shu bilim yurtining "Turizm" yo'nalishiga magistraturaga o'qishga kirdi

2025-yili mazkur oliy o'quv yurtini tamomladi.

Murtazoyev Faxriyor nasta'liq, kufiy murabba, kufiy bannoiy, ma'qaliy, suls xatlarida ijod qiladi. Uning asarlari " Go'zal o'yla go'zal yasha." "Avval o'yla – keyin so'yla" , shuningdek, abri bahorda kufiy murabba xatida yozilgan xattotlik asarlari bor.

Xulosa qilib aytsak, xattot Islom Muhammad yurtimizning istiqboliga xissa qo'shayotgan ustalardan sanaladi. Uning shogirdlarining soni 500tadan oshib ulgurgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026



Murtazoyev Faxriyor “ Go'zal o'yla go'zal yasha.”





Mamatov Islom Muhammad ustahonasidan lavhalar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Sofiya Soliyeva Asliddin qizi.

Mamatov Islom Muhammadning eng sevimli shogirdlaridan biri bu Sofiya Soliyeva Asliddin qizidir. Asli toshkentlik bo'lib , 1998-yili Yakkasaroy tumanida dunyoga kelgan. 2014-yili Toshkent pedagogika bilim yurtiga kirgan. 2017-yili mazkur bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan.

2023-yili TDSHI- “Arab filologiyasi” fakultetiga o'qishga kirdi. Xattotlik bilan 2023-yildan beri shug'ullanib kelmoqda. Asosan Sofiya Soliyeva Asliddin qizi nasta’liq, suls, nasx buxoriy xat uslubida ijod qiladi. Ko'plab mukofotlar sohibasidir. Uning qimmatbaho ishlari Kamoliddin Behzod nomidagi muzeyda saqlanadi. Uning eng katta orzusi mashhur xattot bo'lishdir.

Naqshin yozuvlar egasi Mamatov Islom Muhammad o'z ustida ishlashdan tinmaydi. Shogirdlariga bilim berishdan charchamaydi. Ta’lim berishning yangi usullarini dars davomida qo'llash maqsadida O 'zbekiston Respublikasi “Iste’dod” jamg'armasi masofali o'qitish markazi tomonidan, 2012 yil 16-yanvardan 22 –yanvargacha 40 soatga mo'ljallangan “ Innavotsion texnologiyalar” kursini muvaffaqiyatli tugatdi.

Best Publication ilmiy tadqiqotlar markazi tomonidan 2023-yil 15-yanvar kuni “Fidoyi xizmatlari uchun” esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Sohir Qalam Mo'jizasi III Respublika xattotlik va miniatyura ko'rgazmasida qatnashib , shuningdek 2023-yili 11-iyul Toshkent Fotosuratlar uyida o'tkazilgan “Xattotlik san’atining milliy hunarmandchilikdagi ifodasi” ilmiy-amaliy konferensiyasidagi faol ishtiroki uchun sertifikat bilan taqdirlandi.

Shuningdek uning izlanuvchan talabalari Mamatov Islom Muhammadni juda ardoqlashadi. Shogirdlarning aksariyati kufiy xatni ma’qul ko'rsa, boshqalari nasxda ijod qilishni hush ko'radi. Shu bilan bir qatorda ular kufiy, nasta’liq,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

muhaqqaq, rayhoniy, devoniy, shikasta, suls yozuvlaridan ham unumli foydalanishadi.

Xulosa qilib aytganda, arab xattotligi asl mohiyati nuqtai nazaridan boshqa yozuvlardan qonun va qoidalarining o'zgachaligi bilan ajralib turadi. U bitmas tuganmas xazina ilmdir.

Mazkur xat uslubida yozuvlar o'ngdan chapga tomon yo'nalgan satr va ma'lum unsurlar bilan yozilishidir. Harflar yozilar ekan kishiga estetik zavq bag'ishlaydi. Ushbu yozuv tizimi insonlarni san'atga oshno bo'lishiga yordam beradi.

Salimjon Badalboyev

Sovet hukumati davrida xattotlik diniy yo'nalish deb tazyiq ostiga olingan. Vatanimiz mustaqillikka erishgach , bu san'at ekanligi ta'kidlanib sekin- asta ruhsat berila boshlandi. Shu tariqa xattotlik san'ati rivoj topa boshladi. Bizga ma'lumki O'rta asrlarda bizning diyorimizda yozuv xati rivojlangan makon bo'lgan. Tarihdan bizga ma'lumki, Movaraunnahr ilm-ma'rifat rivojlangan shahar bo'lgan. Bu yerga kelib insonlar xattotlik san'atini o'rganib ketishgan. Bizning ajdodlarimiz bu ilmni yahshi bilganlar. Qadimiy san'at turlaridan biri bo'lmish xattotlik san'atining O'rta Osiyoga kirib kelishi islom dini bilan chambarchas bog'liqdir. Biz bilamizki, arab tili Markaziy Osiyo hududida paydo bo'lgach davlat tiliga aylangan. Xat yozuvi ilmi bu davrda rivoj topdi.

Xattotlar ichida yana bir mohir ustalardan biri bu Salimjon Badalboyev Sobirjon o'g'li Toshkent shahrida 1942-yil 17-fevral tug'ilgan. Mashhur bitik ahli 1964-1970yillarda Toshkent davlat universiteti filologiya qunt bilan ilm olgan. Talabalik davrlaridayoq u husnixat ilmiga muhabbat qo'ydi. Ularning ustozlari Nizomov Hasanxon bo'lgan. Salimjon Badalboyev xattotlik san'atda yangi uslub : "gulli nasx" (arab xat uslubida gul naqshlarini keng qo'llash) borasida yangilik qilgan shaxsdir. U ko'plab mukofotlar sohibidir.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026



Salimjon Badalboyevning mazkur asari 2024 yili aprel oyida yaratilgan san’at asaridir. Bu asar xattotlik uslublaridan kufiy xatida yaratilgan. Qog'ozga ishlangan bo'lib orqa fon sarg'ish rangda tasvirlangan. Arab yozuvlarida vaqt inson uchun juda qimmatli ekanligi ta’kidlangan. Insonlarga vaqt qadrini bildirish maqsadida soat ko'rinishida yozib chiqilgan. Soat ichida ko'k rangli siyohda “Vaqt-qimmat”, vaqt-g'animat” –deb bitilgan. “Vaqt -ganimat” “vaqt- hayot” kabi iboralar esa oldiga qayd etilgan. Asarning ostki qismida qora rangli siyoh yordamida suls xatidan namunalar tasvirlangan.

Xulosa qilib aytsak, xat ilmi vakillari Toshkentda juda serobdir. Har bir xattotning uslubi va ish jarayoni turlichadir. Barcha ustalar kabi ular ham Yurtimiz madaniyatiga hissa qo'shib kelmoqdalar. Ayni damda bu qadimiy san’at o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ustoz va shogird an’anasi xatotlik maktabida yetakchilik qilmoqda. Bu san’atning davomiyligini ta’minlashga yo'l ochuvchi ko'prikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Husnixat durdonalari” (Nasta’liq xati qoidalari) Abdulg'afur Razzoq Buxoriy T, -2008, 60-bet.
2. Xattot bilan suhbat.